

QADIMGI ARABISTONDA ISLOMGACHA BO'LGAN DINIY E'TIQODLAR

Elova Shaxrinov

IV kurs talaba.

Oybek Iskandarovich Rajabov

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364571>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qadimgi Arabiston yarim oroli hududida yashagan xalqlarning ilk diniy e'tiqodiy qarashlari haqida ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida atroflicha tadqiq etilgan. Arablarning ilk diniy e'tiqodlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm va o'tmish ajdodlarga (salaflarga) sig'inishni ta'kidlash mumkin.

Kalit so'zlar: Qadimgi Arabiston, diniy e'tiqod, totemizm, fetishizm, animizm, asad, kalb, bakr, sa'lab, zib, meteorit va vulqoniy toshlar.

ДОИСЛАМ НА ДРЕВНЕМ АРАВИЙСКОМ ПОЛУОСТРОВЕ
РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ

Аннотация. В статье представлено комплексное исследование ранних религиозных верований народов, населявших древний Аравийский полуостров, на основе научных источников. Среди ранних религиозных верований арабов были тоtemизм, фетишизм, анимизм и поклонение предкам (салаф).

Ключевые слова: Древняя Аравия, религиозные верования, тоtemизм, фетишизм, анимизм, асад, калб, бакр, салаб, зиб, метеориты и вулканические породы.

RELIGIOUS BELIEFS IN ANCIENT ARABIA BEFORE ISLAMIC TIMES

Abstract. This article provides a comprehensive study of the early religious beliefs of the peoples who inhabited the ancient Arabian Peninsula based on scientific sources. The earliest religious beliefs of the Arabs include totemism, fetishism, animism, and the worship of ancestors (salaf).

Keywords: Ancient Arabia, religious beliefs, totemism, fetishism, animism, asad, kalb, bakr, sa'lab, zib, meteorites, and volcanic rocks.

Kirish. Arabiston yarim oroli aholisi ham, albatta, qadimda boshqa xalqlar singari ko'p xudolilik diniga e'tiqod qilib kelishgan. Xalqlarning eng qadimgi dinlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm va o'tmish ajdodlarga (salaflarga) sig'inishni ta'kidlab o'tish lozim.

Totemizmnig yaqqol dalili sifatida ko'p arab qabilalarining nomini keltirish kifoya: asad (arslon), kalb (it), bakr (bo'taloq), sa'lab (tulki), zib (bo'ri) va hokazo. Fetishizm qadimgi arablarda asosan meteorit va vulqoniy toshlarni muqaddaslashtirish, ularga sig'inishda o'z ifodasini topdi. Ma'lumki, animizm tabiatdagi jamiki mavjudotlarni "ruhlantiradi", ya'ni ularda "ruh" yoki "jon" bor deb hisoblaydi. "Johiliya" adabiyotida marhumlarning "joni" yoki "arvohi" (ruhning ko'pligi) haqida ko'plab rivoyatlar mavjud.

Asosiy qism. Yarim orolidagi qabila ittifoqlari har xil e'tiqodiy (xudolar) timsollri - sanamlarga sig'inganlar. Ossuriylarning shimoliy arab ("Aribi") qabilalariga hujum qilganda, ularning sanamlarini ham asirga olganlagi haqidagi ma'lumotga qaraganda miloddan avvalgi VIII asrdayoq har bir arab qabilasining o'z sanami bo'lgan[1, 174].

Badaviy arab qabilalari e'tiqod qiluvchi sanamlarini joylashtirish uchun maxsus ibodatxonalar qurdirganlar. Ikki qabila urushidan so'ng odatda mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlagan. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanami yoki sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi.

Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi.

Makka Arabistonning diniy markaziga aylangach, u yerdagi Ka'ba sanamlarning panteoniga (to'plangan joyiga) aylanib qoldi. Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avjida ediki, hatto har bir xonadonning o'z sanami mavjud edi. Safarga otlangan kishi bunday sanamni qo'li bilan siypalab, so'ng yo'lga tushardi, safardan qaytgach esa, birinchi navbatda, u yana sanamini silab-siypalardi.

Arab olimi Ibn al-Asirning uqtirishicha, 630 yili Muhammad Makkani zabt etganida, Ka'ba ichida 360 ta sanamni ko'rgan va ularni sindirib tashlashni buyurgan[2, 92]. Sanamlarning soni uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ma'bud hisoblangan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Ibn al-Kalbiyning arab ko'p xudolilik tarixiga bag'ishlangan "Kitob al-Asnom" degan maxsus kitobi biz tahlil qilayotgan mavzu uchun eng muhim manbalardan hisoblanadi. Mazkur manbada tilga olingan dastlabki 5 ta sanamning nomi (Vadd, Suvo', Yog'us, Yo'uq, Nasr) Qur'onda ham zikr qilingan. Ularning tasviri ko'pchilikka ma'lum edi: Vadd - erkak kishi, Suvo' - ayol kishi, Yog'us - sher, Yo'uq - ot va Nasr - burgut qiyofasida ifodalangandi.

Qur'onda zikr qilingan eng qadimgi sanamlar jumlasiga Manot, Lot va Uzza ham kiradi.

Johiliya arablarining tasavvurida bu uchchala sanam ham ayol xudolar hisoblangan. Ibn al-Kalbiyning aytishicha, Manot hamma arablar uchun muhtaram sanam hisoblangan.

"Hamma arablar" deb Ibn al-Kalbiy Hijoz arablarini ko'zda tutayotgan bo'lsa kerak.

Gerodotning ma'lumot berishicha, Lot shimoliy arablarning bosh xudolaridan biri bo'lgan. Tadmur malikasi Zeboning o'g'li Vahb al-Lot (Lot in'omi) deb atalgani shunga ishora. Nabotiyalar Lotni o'zlarining poytaxti Petrani "ona xudosi" sifatida bilganlar[3, 39-41].

Musulmonlar Toif shahrini fath qilganlarida Muhammadning amri bilan Lot ibodatxonasini buzib tashlaganlari - bu xudoga Hijozda ham e'tiqod qilinganining yorqin dalilidir. Uzzani Ibn al-Kalbiy eng keyin paydo bo'lgan ayol xudo deb beradi. Agar Manotni Yasribdagi ikki arab qabilasi Avs va Xazraj, Lotni esa Toifdagi saqif qabilasi o'zlarining xususiy xudolari deb bilgan bo'lsalar, Makkada quraysh qabilasi Uzzani shunday o'rinda ko'rardi va unga qurbonliklar keltirardi. G'atafon qabilasi Buss degan joyda Uzza sharafiga ibodatgoh qurgandi. Ibodatgoh sahnidagi uch xurmo daraxti ham muqaddas hisoblangan, nazr-niyozni shu daraxtlar ostiga qo'yilgan.

Qurayshlarning Ka'ba ichkarisiga va atrofiga qo'yilgan sanamlari orasida eng buyugi va mashhuri Hubal edi. U serdolik (qizil yarim qimmatbaho tosh)dan o'ng qo'lsiz inson shaklida yasalgan bo'lib, qurayshiylar unga oltin qo'l ulagandilar. Bu sanam oldida 7 kamon o'qi turar, odamlar turli muammo bo'yicha shu o'qlarda fol ochardilar. Demak, Hubalga xizmat qilgan koin shaxsiy masalalarda fatvo berish huquqiga ega bo'lgan. Uxud jangi paytida (625 yil) makkaliklarning rahnomasi Abu Sufyon: «Hubalni yuqori ko'taringlar»[4, 166]., - deb xitob qilgani boshqa sanamlar ichida Hubalning martabasi baland bo'lganini ko'rsatib turibdi.

Ibn al-Kalbiyning «Kitob al-Asnom»iga kirmagan sanamlar ham bor. Ular 40 tadan ortiqdir. Masalan, Kinda va Hadramavtda ma'lum bo'lgan Jalsad sanami, Bakr qabilasiga tegishli Muharriq sanami, Tamim qabilasining Taym sanami va hokazo.

Yaman sanamlarining ham adadi ko'p - yuzdan ortiqdir; ammo sinchiklab qaralganda yozuvlarda ko'pincha xudolarning atoqli otlari emas, balki sifatleri (taqvodorlik yuzasidan xudolarning otidan ko'ra sifatleri bilan atash - somiy xalqlarining qadimiy odatidir) zikr qilingan ko'rinadi.

Qadimgi Yaman aholisining diniy tushunchasi shimoliy va markaziy Arabiston aholisining nisbatan ertaroq rivojlangan bo'lishi kerak, chunki miloddan oldinroq Yaman ko'p xudoligi asosan uch samoviy jism - Oy, Tong yulduzi (Zuhara) va Quyoshga sig'inishda o'z ifodasini topgandi.

Mutaxassislarining fikricha, qadimgi yamanliklar bu uch samoviy jismni Ota, O'g'il va Ona sifatida tasavvur qilganlar. Gap shundaki, hamma qadimgi yaman lahjalarida Oy - muzakkar ism (Main va Avsonda - Vadd, Saboda - Almaqah, Qatabonda - amm, ya'ni amaki, Hadramavtda - Sin), Zuhara yulduzi ham muzakkar (Astar), Quyosh esa - muannas ism (Mainda - «Nakrah», Saboda - «Zot Hamim», Qatabonda - «Zot Saxr») hisoblangan[4, 166-168].

Quyosh xudosi janubiy Arabistonda baraka va mo'l hosil keltiruvchi «Astarting onasi» (Umm Astar) sifatida ma'lum edi. Sirvoh shahridan topilgan sabo yozuvida aytilishicha, Umm Astar ibodatgohiga bir yo'la to'rt farzand ko'rgan bir ayol to'rtta oltindan yasalgan timsol (haykalcha) in'om qilgan. Mainliklarda Nakrah va saboliklarda «Zot Hamim» deb atalgan Quyosh xudosi «nafrat» va «urush» maqsadlariga ham xizmat qilgan.

Miloddan avvalgi I asrda Janubiy Arabistonda Hamdon qayllarining nufuzi kuchayib, ular o'z xudolari «Tolib Riyom»ni boshqa xudolardan ustun qo'ya boshladilar. Deyarli uch asr yozuvlarda zikr qilinmay qo'yilgan «Almaqah» faqat IV asrga kelib, yana paydo bo'ldi. V asr o'rtalaridan boshlab Yaman yozuvlarida «Zu Samo», ya'ni «Osmon egasi» va «Rahmon» nomli xudolar paydo bo'ldi[5, 11].

Rahmon zikr qilingan yozuvlardan anglanishicha, doimo uning qudrati va quvvatidan madad so'ralgan. Masalan, bir maqbara atrofiga tosh devor kurilishi munosabati bilan quruvchilar «bi xeyli Rahmon», ya'ni «Rahmon qudrati bilan» degan yozuv qoldirganlar.

Boshqa bir yozuvda «Rahmon — Samo egasi» deyilgan. Bu osmon xudosi demaqqdir.

Boshqachasiga aytganda «Rahmon» «Zu Samo» o'rnini olgan bo'ladi. Keyinroq Rahmon «Osmon va Yer egasi (Zu Samo va Ard) degan nomni oldi. Bu aqidaga e'tiqod qiluvchilarning tushunchasida Rahmon - butun borliqni boshqaruvchi yagona xudo edi.

Musnad yozuvlarining tadqiqotchisi A.G.Lundin bu aqidani janubiy Arabistonning noaniq monoteistik dini nomi bilan atab, uni III asrdan to VI asr o'rtalarigacha hukm surganini ko'rsatib berdi. V.V.Bartold fikriga qo'shilib, u aynan shu din xristian, yahudiy dinlari va Muhammad targ'ibotining o'rtasida vositachi rolini o'ynadi va islomning asosiy ideologik manbalaridan birini aynan shu aqidadan qidirmok kerak, deb taxmin qiladi.

Islomdan oldin Arabistonning ko'p joylarida yahud jamoalari mavjud bo'lgani haqida ma'lumotlar ko'p. Yahudiylar bilan birga Arabistonga yahudiy dini ham kirib keldi. Qadimgi Falastin, Shom va Mesopotamiyada istiqomat qilgan yahudiy mualliflari esa o'z maslakdoshlari - Arabiston yahudiylarini hartuqiylar (ya'ni yeretiklar) deb hisoblab, ularga deyarli e'tibor bermaganlar. Shunday ekan, Arabiston yahudlari haqida faqat Qur'on, Hadis, Tafsir, «Sira» va axboriylar kitoblari bilan cheklaniladi. Bu manbalar esa o'z navbatida islom arafasi, juda nari borganda, islomdan oldingi 1-1,5 asr uchungina ma'lumotlar bera oladi [4,8,9,11].

Qadimda janubiy Arabiston ham yahudiy dini keng tarqalgan joylardan hisoblanardi. Ma'lumki, mashhur karvon yo'li orqali Main va Sabo savdogarlari Razza shahrigacha borardilar. Isroil - Yahudiya podshosi Sulaymon (mil. av. X asr) va Sabo malikasi haqidagi Tavrot va Qur'onda zikr qilingan qissa yahudlar va yamanliklar o'rtasida qadim zamonlardan beri aloqalar mavjud bo'lganiga ishoradir.

Janubiy Arabistonda hukm surgan Himyar davlatida (mil. avv. 115- mil. 525) yahud jamoalari mavjud bo'lganligiga ishoralar ko'p.

Vizantiya imperatori Konstantin (340-361) tomonidan xristian dinini himyarlar orasida tarqatish uchun yuborilgan ruhoniylar Teofiliyning faoliyatiga ana shu yahudiy jamoalari qarshi chiqqanlar. 425 yili Yamanga ziyorat qilgan xristian tarixchisi Filostorgiy Sabo ahli shanba kunlari Ibrohim sunnatiga amal qilish bilan birga Oy, Quyosh va boshqa samoviy jismlarga ham ibodat qilganlar[5, 11] deydi.

Yahudiy dini kabi xristian dini ham Arabistonga tashqaridan kirib keldi. Yahudiylar o'zlarini «xudo yorlaqagan xalq» deb hisoblab, ko'proq mahalliy aholidan xoli yashagan bo'lsalar, xristianlar aksincha boshqa yerlardagi singari qadimgi Arabistonda ham keng mubashshirlik (xristian dinini tarqatish) ishlarini olib bordilar. Qur'on va islom arafasidagi johiliya she'riyatida xristianlar «nosoro» (nasroniylar) deb atalgan. Bu so'z «nazaret» nomidan olingan bo'lib, Iso Masihning kelib chiqqan joyiga ishora qiladi. Nasroniylar Arabistonga qachon kirib kela boshlaganini hozircha hech kim aniq ayta olmaydi. Odatda, mubashshirlar tib va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga qo'l solishga usta bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir qilganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki bu ishda ularning madadiga erishganlar.

Hijoz shaharlariga xristianlar asosan Vizantiyaning viloyatlariga aylanib qolgan Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar[9, 10,11]. Islom vujudga kelish arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma shaharlari va hatto Yasrib, Makka, Toifda ham talaygina falastinlik va suriyalik xristianlar bor edi. Xristian dini Makka va Toif shaharlariga Laxmiylar podsholigining poytaxti Xira orqali ham kelgan. Makka savdogarlari u yerga Xitoy, Hindiston va Eron mollarini istab borardilar. Xira mahalliy aholisining ko'pchiligi V-VI asrlarda xristian dinida e'tiqod qilardi.

Habash istilosidan so'ng Yamanda cherkovlar soni ko'payib ketdi. Ularning ichida eng hashamatlisi Sanadagi «Qullays» (yunoncha «Eklessiya» so'zidan) nomi bilan mashhur cherkov edi. Bu cherkov buzib tashlangan Al-Maqah ibodatxonasi o'rniga qurilgandi. Zafor shahridagi xristian cherkovining qurilishini Habashiston negusi maxsus yuborgan missioner Girgensiyning faoliyatiga bog'lashadi. Xristian dinining Ya'qubiya (yakovitlar) mazhabi Shom va shimoliy Arabiston badaviy arablari orasida keng tarqaldi. Ya'qubiylar mazhabining nomi Ya'qub al-Barodai (taxminan 500-578 y) ismidan olingan bo'lib, u Iso Masih yakkayu-yagona tabiatga, u ham bo'lsa insoniy tabiatga ega bo'lgan, deb targ'ib qildi. Tarixiy adabiyotda bu mazhab "monofizit" ("mono", "fizia", ya'ni yagona tabiat) nomi bilan ma'lum.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Muhammad payg'ambarning diniy targ'iboti quraysh zodagonlariga katta ta'sir o'tkazdi. Chunki ularning butun Arabiston yarim oroli qabilalari ustidan gegemonligi zaminida birinchi navbatda ko'p xudolilik yotardi.

Shuning uchun ham ular Muhammad targ'ibotiga asrlar uzra davom etgan va yana davom etishi kerak bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga barham beruvchi voqea sifatida qaradilar. O'z navbatida islom vujudga kelishi jarayonida mafkuraviy kurashning keskinlashuvi ko'p xudolik (shirk) ustidan qat'iy hukm chiqarilishini va budparastlikni tag-tomiri bilan yo'qotish zaruratini taqozo qildi.

REFERENCES

1. Хасанов А.А. Қадимги Арабистон ва илк ислом жоҳилия асри. Т., 2000.
2. Ислам справочник. III нашр. Т., 1989.
3. Хасанов А. Тадмур маликаси. Саодат, №5. Т., 1994.
4. Пиотровский М.Б. Южная Аравия в раннее средневековье. М., 1985.
5. Хожи Исматуллох Абдуллох. Марказий Осиёда ислом маданияти. Т., 2005.

6. Аширов А. Атаджанов Ш. Этнология. Т., 2007.
7. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1988.
8. Васильев Л.С. История Востока. М., 1998.
9. Древние цивилизации. Под редакцией Г.М. Бангарда-Левина. М., 1989.
10. Жабборов И. Жаҳон халқлари этнологияси. Т., 2008.
11. Ислом справочник. III нашр. Т., 1989.
12. Rajabov, O. (2024). XOJA UBBON IBN USMON IBN AFFON ZIYORATGOHI. *Modern Science and Research*, 3(10), 1-5.
13. Shokirova, F., & Rajabov, O. (2024). TURK XOQONLIGI DAVRIDA MAHALLIY BOSHQARUV MASALALARI. *Modern Science and Research*, 3(5), 1166-1170.
14. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble.
15. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
16. Rajabov, O. I. (2024). FEMALE SAINTS AND HOLY PLACES IN BUKHARA. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(6), 18-22.
17. Umarov, B. B. (2024). VIII-X ASRLARDA BUXORO SHAHRI TARIXIY TOPOGRAFIYASI (SHAHRISTON MISOLIDA). «Ёш олимлар ахборотномаси»– «Вестник молодых ученых», (Спецвыпуск), 103-108.
18. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 166-166.
19. Bakhtishod, U. (2024). CONSTRUCTIVE ACTIVITIES TO THE SAMANID RULERS. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(5), 169-172.
20. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 495-497.